

**N.B.Muzaffarov**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

---

## **IX-XII ASRLARDA YASHAB IJOD QILGAN O'RTA OSIYOLIK BUYUK**

### **ALLOMALAR VA ULARNING JAHON SIVILIZATSIYASI RIVOJIGA**

#### **QO'SHGAN HISSALARI**

**Annotatsiya:** Ilm-fan madaniyatimiz taraqqiyotida IX—XII asrlar davrining o'rni beqiyosdir. Bag'doddagi ilmiy akademiya o'rni olib Xorazmda ham X asrda Ma'mun akademiyasi vujudga keldi

**Kalit so'zlar:** Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn al-Hammar, Abu Saxl Masixiy,

Ibn Irok, Ahmad Farg'oniy.

---

IX-asrda Movarounnahrlik olimlar xalifa Xorun ar-Rashid tashbusi bilan Bag'dodda ilmiy Markaz-Akademiya («Bayt ul-Xikma»)-tashkil etib, unga barcha musulmon o'lkalari, jumladan O'rta Osiyodan ham olim va fozillar to'plandi. Bu markazda Movarounnahr va Xurosondan kelgan Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar Bag'dod akademiyasini jahonga mashhur bo'lishida katta hissa qo'shdilar. Movarounnahrda arab halifaligi hukmronligining o'rnatilishi hamda islom dinining keng yoyilishining ijobiy tomonlaridan biri shuki, Bag'doddagi ilmiy akademiya o'rni olib Xorazmda ham X asrda Ma'mun akademiyasi vujudga keldi va uning a'zolari bo'lmish o'z davrining olimu-donishmandlari o'z ijodlari bilan Movarounnahrni donishi olamga yoydilar. Shuningdek o'lkamiz hududidan islom dunyosining eng mo'tabar shaxslari, hadisshunoslari yetishib chiqdilar, ularning nomi hozirgi kungacha ham dunyoviy, ham tasavvuf ilmining yuqori pog'onalarida turibdi.

Ma'lumki, uzoq o'tmishga ega bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyoti tarixi o'z boshidan turli voqealarni, yuksalish va orqaga ketish davrlarini boshdan kechirdi. Shubhasiz, bu davrlarning barchasi tarixda o'zining ma'lum izini qoldirdi. Xususan ilm-fan madaniyatimiz taraqqiyotida IX—XII asrlar davrining o'rni beqiyosdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Ma'mun ibn Muhammad X asr oxirlarida janubiy va shimoliy qismlarga bo'lingan Xorazmi yagona bir markazga birlashtirdi. Ma'mun ayniqsa poytaxt Gurganchni Sharqning eng yirik ilmiy-madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Ma'mun Gurganchda «Baytul xikma» (Donishmandlar uyini)ni tashkil qildi. U Ma'mun akademiyasi deb ham ataldi. Bu maskanda ulug' mutafakkirlar Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn al-Hammar, Abu Saxl Masixiy, Ibn Irok, Ahmad Farg'oniyilar ijod qildilar. Shuningdek ular orasida Sharqning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan ulug' allomalar ham bor edi.

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al - Xorazmiy. (783-850yy) Buyuk mutafakkir va olim al-Xorazmiyning arifmetika va algebraga doir «Kitob al-jabr val mukobala» (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi. «Hind arifmetikasi haqida kitob» asari tufayli avval Sharq xalqlari, so'ngra esa Yevropa xalqlari ham Qadimiy Hindistonning katta yutug'i-o'nli pozitsiyasi hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. (XII asrda lotin tiliga o'girilgan). Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» (yerning surati) asari geografiyaga,

«Astronomik jadvallar» astronomiyaga oid bo'lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, «Quyosh soatlari to'g'risida risola», «Tarix risolasi», «Usturlab haqida risola», «Musiqqa risolasi» singari ajoyib asarlari olimga katta shuhrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr val muqobala» asari keyinchalik Yevropada «Algebra» deb yuritila boshlandi. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G'arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o'ynadi.

Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad Al-Farg'oniy. Al-Farg'oniyning tarjimai holiga doir ma'lumotlar tarixda kam saqlanib qolgan. 861 yilda vafot etgan. Astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni hisoblanib Bag'dod va Damashqdagi rasadxona qurilishlarida faol qatnashdi va u yerda Ptolemeyning «Yulduzlar jadvalidagi» ma'lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Al-Farg'oniy «Astronomiya negizlari» asarida astronomiyaga oid bilimlarni tartibga soldi, o'zining yangi natijalari bilan boyitdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq mamlakatlarni yetti iqlimga bo'lib o'rgandi. Quyosh soatlari bayonini berdi, astronomik asboblarni yaratdi. Farg'oniyning bu asari N.Kopernik davriga qadar Yevropada astronomiya fanidan asosiy qo'llanma sifatida foydalanildi.

Abu Nasr al-Forobiy (873-950 yy). O'trorda tug'ilgan, boshlangich ma'lumotni Shosh, Buxoro, Samarqandda olgan so'ng Bag'dodda uzoq yashab, zamonasining olimlari bilan ilmiy muloqotda bo'lgan. Ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq risolalar yozgan. Musiqqa nazariyasiga bag'ishlangan «Musiqqa haqida katta kitob» nomli mashhur asari bu soha tarixiga bag'ishlangan eng dastlabki tarixiy manbalardan biridir. U serqirra, qomusiy olimdir.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yy). Xorazmda tavallud topgan bu mutafakkir astronomiya, tarix, tibbiyot, riyoziyot, jug'rofiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, falsafa, filologiyaga oid 150 ga yaqin asarlar yaratgan. Bu asarlar Beruniy nomini jahonga taratdi. Shuningdek, uning hikoyalar, she'rlar bitganligi xam ma'lum. Beruniy o'rta asrda birinchi bo'lib globus yaratdi. U arab, fors, hind, turkiy tillarni mukammal bilgan. Uning «Farmokanaziya», «Geodeziya», «Hindiston», «Minerologiya», «Ma'sud qonuni», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlari o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Maxmud G'aznaviy saroyda ham xizmatda bo'lgan. U Ibn Sino bilan zamondosh edi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yil). Falsafa, mantiq, ruxshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Ibn Sinoning ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng bo'lganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga bag'ishlangan asarlar yaratgani ma'lum.

IX-XII asrlarda adabiyot, me'morchilik va din ravnaqi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasi pishiq g'isht bilan qurilgan go'zal maqbara to'rtburchak shaklida bo'lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchakdan nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o'tilgan. Shu bilan birga bu bino to'rt fasadlidir. Uning to'rtala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Oddiy qilib aytganda, binoning oldi, yoni va orqa tomoni yo'q. Hamma tomoni bir xilda bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurishda va bezatishda arablardagi o'sha davr uchun xos bo'lgan me'moriy xususiyatlardan ham ko'p foydalanilgan. IX-X asr me'morchiligining rivojlanish yo'llarining saqlanib qolganligini ko'plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, somoniylar davridagi ko'pgina masjidlar o'z vaqtida arablarga bo'lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo'lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo'lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib qirqilgan g'ishtlar, o'yma ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezatilgan. Bu davrga oid masjidlar to'g'risida so'z

yuritilganda, Buxorodagi Mag'oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahrisonidagi Childuxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O'rta Osiyoda diniy me'morchilikning rivojlanish yo'llarini kuzatish imkoniyatini berdi. Narshaxiyning yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o'zi uchun kattga saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag' sarflagan. Bu saroy g'oyat go'zal bo'lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marv, Samarqand va boshqa shaharlarda ham bo'lgan. Bu saroylar o'zlarining kattaligi va go'zalligi bilan ajralib turgan. Ko'p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog'lar ichida bunyod etilgan.

Yusuf Xos Hojib (XI asr) Bolasog'unda tug'ilgan yirik adib Yusuf Xos Hojibning mashhur «Qutadg'u bilig» (Saodatga yo'llovchi bilim) asari turkiy xalqlarning bizgacha yetib kelgan birinchi badiiy asari ekanligi bilan ham qimmatlidir. Muallif 6407 bayt orqali markazlashgan feodal davlatni idora qilish yo'llari, siyosati hamda xalqlarning rasm-rusumlari va axloq qonun-qoidalarini ushbu asarda mujassamlashtirgan. «Qutadg'u biligda» sog'liqni saqlash, dorishunoslik va umuman tabobatga oid baytlar ham ko'p uchraydi.

Ahmad Yugnakiy (XII asr II yarmi-XIII asr boshlari) Samarqand yaqinidagi Yugnak qishlog'ida tug'ilgan. Yugnakiyning ayniqsa «Xibbat ul- haqoyiq» (haqiqatlar hadisi) asari juda mashhur bo'lib, muallifga shon-shuhrat keltirgan. Asarda asosan insonga xos bo'lgan fazilatlar bayon etilgan.

Abu Abdullo Rudakiy (884-954 yillar) Fors tojik adabiyotining buyuk ustoz. Samarqandga yaqin Rudek qishlog'ida tug'ilgan. Uning she'riy merosi nihoyatda boy va rang barang. Uning qalamiga mansub «Kalila va Dimna», «Davroni oftob», «Sindbodnoma» kabi poemalardan parchalar saqlanib qolgan.

Abu Mansur Muhammad Daqiqiy (935-977 yillar) X asrning Rudakiydan keyingi eng mashhur shoirlardan, manbalarga qaraganda Samarqandda tug'ilgan. Somoniylar saroyida yashagan. Birinchi bo'lib «Shoxnoma» yozishni boshlagan. Lekin faqat ma'lum bir qismini yozishga ulgurgan va tasodifiy voqea bilan vafot etgan. Undan 1209 bayt saqlanib qolgan. Daqiqiy musiqa ilmini rivojiga ham katta hissa qo'shganligi haqidagi manbalar ham mavjud.

Abulkosim Firdavsiy (934-1030 yillar). Eronning Tus shahrida tug'ilgan. Arab va fors adabiyotini yaxshi bilgan. Butun umrini Eron shoxlarining afsonaviy qahramonlariga bag'ishlangan katta epik asar «Shoxnoma» ni yaratishga sarflagan. Asar dunyoni ko'pgina tillarida nashr qilingan. Firdavsiy o'z «Shoxnoma» si bilan o'ziga abadiy haykal yaratib ketgan va avlodlar tashakkuriga sazovor bo'lgan. IX-XII asrlar Markaziy Osiyo madaniyati rivojiga nazar tashlar ekanmiz, bu davrda tasavvuf (sofizm) ta'limotlari madaniyatning, ma'naviyatning barcha tomonlariga kirib borganligini kuzatish mumkin. So'fizm shaxsiy erkinlik, o'z xohishi bilan tozalanib Olloxga ruhiy ma'naviylikka singish orqali erishishga asoslanadi. Tasavvufda ruxni kamolotga va uni so'nggi maqsadi - Olloxga erishuv yo'llari 4 bosqichdan iboratdir: 1) Shariat. 2) Tariqat. 3) Ma'rifat. 4) Haqiqat.

So'fizm nazariyotchilari, olimlari o'z davrining bilimni puxta egallagan, ilmlardan xabardor, bilimdon-mutafakkirlar bo'lgan. X asrdan boshlab sufizm g'oyalari O'rta Osiyo shaharlarida ham tarqala boshlagan. Biz quyida ushbu yo'nalishga sodiq qolgan holda o'z ijodlari bilan dunyoga tanilgan ba'zi mutafakkirlar haqida fikr yuritishni joiz topdik.

Ahmad Yassaviy (XI asr-1166 yillar) Yassi (Turkiston) shahrida tug'ilgan. Otasi Ibroxim Sa'y Rom shahrida ko'p yillar shayxlik qilgan. Ahmad Yassaviy asli kelib chiqishi Toshkentdan bo'lgan mashhur turk mashoyixi Arslonbob Toshkandiydan taxsil olgan. Uning vafotidan so'ng

Yusuf Hamadoniydan ilm o'rgangan. Yassaviydan bizgacha etib kelgan yagona meros - bu uning «Devoni xikmat»idir. Shuningdek Yassaviyning sermazmun xikmatlari «Faqrnoma» risolasida ham o'z aksini topgan. Ahmad Yassaviy tasavvufda Yassaviya tariqatiga asos soldi.

Sulaymon Boqirg'oniy (1186 yilda vafot qilgan). Ahmad Yassaviyning munosib shogirdi va davomchilaridan biridir. Xorazmning Baqirg'on degan joyida tug'ilgan. Turkiy xalqlar orasida Hakim ota laqabi bilan ham mashhur bo'lgan. Uning din va tasavvuf, ishq va xhloqdan saboq beruvchi asarlari butun Turkiston hududlarida sevib o'qilgan. Uning «Baqirg'on kitob» nomli yirik asari keyingi yillarda o'zbek kitobxonlariga ham yetib keldi.

Najmiddin Kubro (1145-1221 yillar). Shoir va olim. O'rta Osiyodagi yirik sufiylik oqimi - Kubraviyaning asoschisi. Xivada tug'ilgan. O'rta va yaqin Sharq o'lkalariga, O'rta Osiyo, Hindiston, Eron, Afg'oniston hududlariga keng tarqalgan oqimdir. U o'zining qator risolalarida Kubraviya birodarligi qoidalarini ishlab chiqargan. Najmiddin Kubro 76 yoshida Urganchga hujum qilgan Mo'g'ullarga qarshi lashkar to'plab chiqib xalqni hujumga boshlab borgan. Islom dinining mamlakatda asosiy din sifatida tan olinishi, boshqa diniy e'tiqodlarning oyoq-osti qilinishi, mehnatkash xalq ommasi turmush tarzining og'irlashishi Najmiddin Kubroni bunday og'ir vaziyatlarni yumshatishga, xalq og'irini yengil qilishga yordam beruvchi g'oyalarni qidirishga majbur qila boshladi. Bu g'oya tasavvuf g'oyasi bo'ldi.

Imom Ismoil al-Buxoriy (810-870 yy.) Buyuk hadisshunos olim Imom Buxoriy hayoti davomida 600 ming hadis to'plab, ulardan 7275 hadisni o'zining 4 jildlik «Ishonarli to'plam»iga kiritdi. Islom dunyosining yirik olimi, hadisshunoslikda eng yuqori pog'onaga chiqqan Imom Ismoil al-Buxoriyning yubileyi 1998 yil xalqaro miqyosda tantanali nishonlandi va u vafot etgan Samarqand atrofidagi Chelak shahrida nihoyatda hashamatli ziyoratgoh qurildi. Bu yerga jahonning turli joylaridan minglab odamlar ziyoratga kelmoqdalar.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892 yy) Islom dunyosida mashhur bo'lgan hadischi olim Imom at-Termiziy Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tug'ilgan. 26 yoshidan boshlab Samarqand, Buxoro, Xijoz, Iroq, Nishopur shaharlarida mashhur muxaddis olimlar bilan uchrasha boshladi. Uning buyuk hadischi olim bo'lib, etishishida Imom Ismoil al-Buxoriy ustozligi katta o'rin tutadi. Umrini hadislar to'plashga bag'ishlagan At-Termiziydan katta ilmiy meros, jumladan: «Kitobi al-Jom'e as-saxix», «Kitob ul ilm», «Kitobi at-Tamoyili an-Nabaviy», «Kitobi az-zuxl», «Kitobul ismi val xuna» kabi asarlar qolgan.

Burxoniddin Marg'inoniy. (1197 yilda vafot qilgan). To'liq ismi Burxoniddin Marg'inoniy Ibn Abu Bakr al-Farg'oniy al-Rishtoniy. Burxoniddin fiqx ilmiga (din, shariat haqidagi fan) oid bir nechta risolalarni «Bidoyatul muftadiy» (ilmga- kirishuvchi dastlabki asos) «Al mazid» (ziyoda qilish) «Kitobul faroiz» (farzlar haqida kitob) va boshqa asarlarni yozib qoldirgan. Burxoniddin Marginoniyning «Xidoya fi furu' al-fikx» (Fikx sohalari bo'yicha qo'llanma) asari 56 kitobdan iborat bo'lib, bu asar shariat kodeksi deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Nakshbandi as the great sufi scholar. International scientific and practical conference “Innovative Development in the global science”. Boston (USA), 2022 – B. 18-22.

2.Alisher Rajabov Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. Farg'ona,2023. – B. 16-19.

3.Rajabov Alisher Shavkatovich. Abu Nasr Farobiy. / Journal of Innovations in Social Sciences  
Volume: 01 Issue: 01 | 2021 ISSN: 2181-2594 2021-yil,20-noyabr. B.97-102

4.Rajabov Alisher Shavkatovich, Elibayeva Feruza Xamzayevna. O'tkir qilich va qalam sohibi :  
Bobur merosi jahon olimlari nigohida. / Research and education 2022/2/25. – B. 647

5.Sohibqiron Amir Temur davrida madaniyat va ilmiy bilimlarning rivojlanishi (aniq va tabiiy  
fanlar misolida) va taraqqiyot bosqichlari.International Scientific and Practical Conference  
Innovative development in the global science vol-2ISSUE-3 2023 Boston USA.30.03.2023.B.53-  
59

6.Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi(Hindiston asari)xotiralari xususida ayrim chizgilar.  
International Scientific and Practical Conference “The role of science and innovation in the  
modern world”. London,United Kingdom.30.03.2023.B.35-44.

7.A.SH.Rajabov. Somoniylar davlatining tashkil topishi va ijtimoiy-siyosiy hayoti. Vol. 9  
No.1(2023):Inernational scientific-practical conference. “Russian” инновационные подходы в  
современное науке14.04.2023.B1-8.